

CHO'LPON VA FITRATNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI*Shoxruxbek Maxmidjonov**Farg'ona davlat universiteti**Adabiyotshunoslik kafedrasida**Mustaqil izlanuvchisi**Xatamova Sarvinoz**Farg'ona davlat universiteti**Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotining yetuk namoyandalari — Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari har tomonlama tahlil qilinadi. Ularning qarashlarining o'zaro mushtarak va farqli jihatlari ochib berilib, ularning o'zbek adabiy tanqidchiligi rivojiga qo'shgan hissasi aniqlashtiriladi.

Tayanch so'z va iboralar : Cho'lpon, Fitrat, jadid adabiyoti, adabiy tanqid, badiiy-estetik qarashlar, milliy uyg'onish, adabiyot nazariyasi, tanqidchilik.

Annotation : In this article, the literary and critical views of Abdulhamid Cholpon and Abdurauf Fitrat, mature representatives of modern literature, are comprehensively analyzed. Their views, and their contribution to the development of Uzbek literary criticism is clarified.

Key words: Cholpon, Fitrat, modern literature, literary criticism, artistic and aesthetic views, national renaissance, literary theory, criticism.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются литературно-критические взгляды Абдулхамид Чолпона и Абдурауфа Фитрата, зрелых представителей современной литературы. В статье раскрываются общие и различные стороны взглядов Чолпона и Фитрата, выясняется их вклад в развитие узбекского литературоведения.

Ключевые слова: Чолпон, Фитрат, современная литература, литературная критика, художественно-эстетические взгляды, национальный ренессанс, теория литературы, критика.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Bu davr milliy uyg'onish, ijtimoiy ongning o'sishi va badiiy tafakkurning yangilanishi bilan xarakterlanadi. Jadidchilik harakati nafaqat ma'rifiy-ijtimoiy sohada, balki adabiyot va san'at rivojida ham muhim o'rin egalladi. Aynan shu davrda adabiyotning mohiyati, uning vazifasi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Jadid adabiyotining yetuk vakillari — Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat ushbu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida nafaqat badiiy ijod

namunalarini yaratdilar, balki adabiyotning nazariy asoslarini shakllantirishga ham katta hissa qo'shdilar. Ularning adabiy-tanqidiy qarashlarida adabiyotning xalq hayoti bilan uzviy bog'liqligi, milliy ruh va ma'naviy qadriyatlarni aks ettirish, badiiy asarning estetik mukammalligi kabi masalalar yetakchi o'rin tutadi. Mazkur maqolada Cho'lpon va Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari ilmiy asosda tahlil qilinib, ularning adabiyotga doir nazariy qarashlari, estetik mezonlari hamda milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, ularning qarashlaridagi mushtaraklik va o'ziga xoslik jihatlari qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi. Bu esa o'zbek adabiy tanqidchiligidagi shakllanish bosqichlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Abdulhamid Sulaymon Cho'lponning serqirra iste'dod egasi bo'lganligi, uning shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist, tanqidchi, teatr tanqidchisi sifatida faoliyat olib borganini yaxshi ma'lum. Cho'lponning matbuotdagi dastlabki chiqishlaridayoq bu serqirralik namoyon bo'lgan: «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» gazetalarida e'lon qilingan ilk she'r, hikoya va publitsistik maqolalari qatorida «Adabiyot nadur?» va «Muhtaram yozg'uvchilarimizga» nomli adabiy-tanqidiy maqolalari ham bor. Mutaxassislar Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari jadidchilik g'oyalari ta'sirida shakllanganini yakdillik bilan ta'kidlaydilar. N.Yo'ldoshev ko'rsatishicha, shoir 1914—1937-yillar mobaynida chop etgan adabiytanqidiy maqolalar soni 70 ga yaqindir. Shu ma'lumotning o'ziyoq Cho'lponni munaqqid sifatida o'rganish muhim ekanini ko'rsatadi. To'g'ri, gap bu o'rinda sonsanoqdagina emas, maqolalarning ilmiynazariy qimmatini haqida, albatta. Cho'lpon maqolalari esa, eng avvalo, ana shu jihati bilan qadrlidir.

«Adabiyot nadur?» nomli maqola bu fikrning to'g'riligini anglash uchun yetarli. Cho'lpon adabiyotni «yurak kirlarini yuvadigan ma'rifat suvi» deb biladi. U adabiyot jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi, «adabiyot yashasa, millat yashar» degan fikrni olg'a suradi. Haqiqatan ham XX asr boshlarida ommada ma'lum bir fikrni shakllantirish uchun adabiyot, matbuot juda katta ahamiyatga ega edi. Cho'lpon jadidchilik g'oyalarini amalga oshirish, xalqni ma'rifatli qilishda adabiyotning o'rnini kattaligini aytish bilan cheklanib qolmaydi. Uning fikricha, «agar bayoz va bema'ni bir ikkita kitob bilan qoladigan bo'lsak, maxv-u inqiroziy bo'lurmiz». Cho'lpon o'z davrida chop qilingan bayozlarni nazarda tutgan bo'lib, ularda mazmun shaklbozlikka, muvashshahchilikka qurbon qilingan. Shuning uchun ham yosh tanqidchi ularni millat manfaatiga xizmat qilmaydi, deb hisoblaydi. Cho'lpon qanday adabiyotni nazarda tutadi? Shu maqolada Cho'lpon «o'zining shavkat va g'ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg'on jahongirlarning o'tkazgan kunlarini va davrlarini tarixlarda ko'rsa va eshitsa har kishi yuragida bir boturliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo'linar» deb yozadi. Cho'lpon adabiyot o'quvchida milliy g'ururni uyg'otishi kerakligini alohida ta'kidlab aytmoqda. Chunki millat ruhi «maishat yo'lidagi har xil qora kirlar bilan kirlangan», uni tozalash, poklash

uchun, uyg'otish uchun adabiyot zarurdir. Maqolada davrining juda muhim masalasini o'rta tashlar ekan, Cho'lpon yurtdoshlariga «Adabiyot o'quylik. Adiblar yetishduraylik, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk» deya xitob qiladi. Bundan ko'rinadiki, yosh adib adabiyotni millatni uyg'otish, taraqqiy ettirishning muhim vositasi deb bilgan.

Cho'lpon «Muhtaram yozg'uchilarimizga» nomli ochiq xat shaklidagi maqolasida qalam ahli e'tiboriga boshqa bir muhim masalani qo'yadi. U endi «adabiyot qanday bo'lishi kerak?» degan savolni o'rta tashlab, bunga qo'lidan kelgancha javob berishga intiladi.

Fitratning tanqidiy qarashlari. Abdurauf Fitrat o'zbek adabiyoti tarixida shoir, dramaturg, yozuvchi, publitsist, davlat arbobi, tilshunos, adabiyotshunos, tanqidchi sifatida qomusiy bilimlari bilan shuhrat qozondi. Ozod Sharafiddinovning «Fitrat o'zbek adabiyotshunosligining otasi» degan fikri ayni haqiqatdir. Fitrat turkiy til, xususan, o'zbek tili va adabiyotining shakllanish bosqichlari, hodisalari talqini masalasida o'z davrining eng so'nggi va ilg'or qarashlariga tayandi. Abdurauf Fitratning adabiy tanqidiy faoliyati nisbatan kech boshlanib, juda murakkab bir sharoitda kechdi. Bu murakkablik faqat davr ijtimoiy hayotidagi taloto'plar, qirg'inbarot-u quvg'inlar, fikrga mafkuraviy-siyosiy tazyiqning kuchayishi kabilar bilangina belgilanmaydi. Murakkablik, sanalganlarga qo'shimcha o'laroq, Fitrat adabiy tanqidiy faoliyatining o'zbek adabiyotshunosligining alohida fan sohasi sifatida endigina shakllana boshlagan davriga to'g'ri kelishi bilan ham bog'liqdir. 20-yillar vaqtli nashrlarida Fitratning «Qutadg'u bilik», «Muqaddimatul adab», «Ahmad Yassaviy», «Hibatul haqoyiq», «O'zbek shoiri Turdi», «Farhod-u Shirin» dostoni to'g'risida», «Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni haqida», «Muhammad Solih», «XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga bir nazar» singari o'nlab maqolalari e'lon qilindi. Mazmun mohiyatiga ko'ra bu maqolalar ham adabiy tanqidiy xarakterga ega edi. Chunki munaqqid ularda o'tmish adabiyoti ngmunalarini o'z davri nuqtayi nazaridan tahlil qildi va baholadi, ularni zamonasining ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qildirdi. Fitratning maqolalari ilmda hali ma'lum bo'lmagan faktlarni muomalaga kiritishi, adabiyotshunoslikning juda muhim masalalariga diqqatni tortishi, mavjud yanglish yoki noto'g'ri fikrlarga aniqlik kiritishi bilan o'z davri uchun ham, adabiyot tarixi sohasining keyingi taraqqiyoti uchun ham muhim edi. Fitrat adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning xilma-xil janrlariga murojaat etadi va buni ongli ravishda, maxsus tayyorgarlik bilan amalga oshiradi. Fitrat esa ana shu xizmati bilan adabiy-tanqidiy janrlarni kashf etishda faollik ko'rsatgan. Bu hodisa o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning keyingi taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Uning "O'zbek shoiri Turdi", "Muhammad Solih" portret-maqolalar bo'lsa, «Ahmad Yassaviy», «Fors shoiri Um ar Xayyom», «Mashrab» kabi tadqiqotlar tanqidiy-biografik ocherk janriga taalluqlidir.

Mazkur maqolada Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ular o'zbek adabiyotining rivojlanishida nafaqat badiiy ijodkor, balki nazariy adabiy tanqidchi sifatida ham muhim o'rin egallagan. Cho'lponning qarashlarida badiiylik va estetik mukammallik, inson ruhiyati va shaxsiy kechinmalarni nozik ifodalashga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Fitratning yondashuvida adabiyotning milliy uyg'onish, ma'rifiylik va jamiyat taraqqiyotidagi vazifasi asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, ularning qarashlaridagi mushtarak jihatlar — adabiyotning xalq hayotiga yaqinligi, milliy ruhni aks ettirish va badiiy asar orqali tarbiyaviy ahamiyat yaratish masalalari ilmiy asosda aniqlanadi. Natijada, Cho'lpon va Fitratning adabiy-tanqidiy merosi o'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning qarashlari zamonaviy adabiy tadqiqotlar uchun ham nazariy asos va metodologik yo'nalishlarni belgilaydi. Shu tariqa, maqola mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish, ularning ijodiy merosini chuqurroq anglash va o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida o'rni qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. BAHODIR RAHMONOV." O'ZBEK ADABIYTANQIDCHILIGI" (O'quv qo'llanma) "Istiqlol nuri" nashriyoti ,Toshkent 2015
2. B. NAZAROV, A. RASULOV,Q. QAHRAMONOV, SH. AXMEDOVA"O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi ,Toshkent — 2012
3. Fitrat. Tanqidiy maqolalar to'plami. - Toshkent
4. www.ziyouz.com kutubxonasi